

UDC: 34(042)(575.1)
ORCID: 0000-0001-8135-7383

NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA FUQAROLAR ISHTIROKINING NAZARIY ASOSLARI TAHLILI

Boymurodov Botir Panji o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi,
e-mail: bboymurodov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada norma ijodkorligi tushunchasi, uning huquq ijodkorligidan farqli xususiyatlari, shuningdek, norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining nazariy asoslari tahlil qilingan. Bundan tashqari, amaldagi qonunchilikda belgilangan huquqiy normalar asosida fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonida ishtirok etishi bilan bog'liq mavjud holatga huquqiy baho berilgan. Norma ijodkorligi jarayoniga fuqarolarni jalb qilishning normativ-huquqiy hujjatlar sifatiga ko'rsatadigan ijobiy ta'sirlari hamda norma ijodkorligi jarayonida jamoatchilik muhokamasiga bo'lgan obyektiv ehtiyojlar muhokama qilingan. Tizimli, muammoli va gipotetik metodlar yordamida olib borilgan tahlil natijasida norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki bilan bog'liq mavjud muammo va kamchiliklar ochib berilgan hamda ularning nazariy-huquqiy yechimlari yuzasidan takliflar bildirilgan.

Kalit so'zlar: norma ijodkorligi, huquq ijodkorligi, fuqarolar, fuqarolar ishtiroki, normativ-huquqiy hujjat.

АНАЛИЗ ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ ОСНОВЫ УЧАСТИЯ ГРАЖДАН В ПРОЦЕССЕ НОРМОТВОРЧЕСТВА

Боймуродов Ботир Панжи ўғли
старший преподаватель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье анализируется понятие нормотворчества, его отличия от нормотворчества, а также теоретические основы участия граждан в процессе нормотворчества. Кроме того, на основе правовых норм, установленных действующим законодательством, произведена правовая оценка текущей ситуации с участием граждан в процессе нормотворчества. Обсуждены положительные эффекты вовлечения граждан в процесс нормотворчества на качество нормативно-правовых актов и объективные потребности в общественном обсуждении в процессе нормотворчества. В результате анализа, проведенного с использованием систематических, проблемных и гипотетических методов, были выявлены существующие проблемы и недостатки, связанные с участием граждан в процессе нормотворчества, и внесены предложения по их теоретическим и правовым решениям.

Ключевые слова: нормотворчество, правотворчество, граждане, участие граждан, нормативно-правовой акт.

ANALYSIS OF THE THEORETICAL BASIS OF PARTICIPATION OF CITIZENS IN THE PROCESS OF RULE-MAKING

Boymurodov Botir Panji o'g'li,
Senior teacher of
Tashkent state university of law

Abstract. The article analyzes the concept of rule-making, its differences from law-making, as well as the theoretical foundations of citizens' participation in the process of rule-making. In addition, on the basis of legal norms established by the current legislation, a legal assessment of the current situation with the participation of citizens in the rule-making process was made. The positive effects of involving citizens in the rule-making process on the quality of normative legal acts and the objective needs for public discussion in the rule-making process were discussed. As a result of the analysis carried out using systematic, problematic and hypothetical methods, the existing problems and

shortcomings associated with the participation of citizens in the rule-making process were identified, and proposals were made for their theoretical and legal solutions.

Keywords: rulemaking, lawmaking, citizens, citizen participation, normative legal act.

Kirish

Norma ijodkorligi tabiatiga ko'ra o'ziga xos, murakkab jarayon bo'lib, qonun hujjatlarining hayotiy va xalqchil bo'lishi aynan mazkur jarayonga bevosita bog'liq. Shu jihatdan so'nggi yillarda norma ijodkorligi faoliyatiga bo'lgan yondashuvni tubdan o'zgartirish, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayoniga keng xalq ommasini jalb qilish, bunda fuqarolarning yanada faol ishtirokini ta'minlash, qolaversa, zamon talablaridan kelib chiqib, sohaga aqli tartibga solish elementlarini joriy etish, umuman olganda, norma ijodkorligi faoliyatining huquqiy asoslarini qayta ko'rib chiqish va yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligi munosabati bilan Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev so'zlagan nutqida quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan edi: "Afsuski, hozirgi kunda qonunlarning islohotlar samarasiga ta'siri yetarlicha sezilmayapti. Ularning ijtimoiy munosabatlarni bevosita tartibga solishdagi roli pastligicha qolmoqda. ... Bu boradagi ishlarni tashkil etishda, avvalambor, qonun loyihalarini puxta va ijtimoiy munosabatlarni to'g'ridan-to'g'ri tartibga soladigan darajada ishlab chiqish, ayniqsa, idoraviy hujjatlarni keskin qisqartirish zarur, deb hisoblayman" [1].

Darhaqiqat, normativ-huquqiy hujjatlarining amaliyotga samarali tatbiq etilishida to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan qonunlar alohida o'ringa ega. Shu jihatdan "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi"da to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlarni qabul qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish vazifalari belgilab berildi. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida 2020-yil 19-may kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida Adliya vazirligiga ham ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlarni to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonun loyihalarini sifatida qabul qilish orqali ularning ulushini 20 foizga yetkazish vazifasi yuklatilganligi bejizga emas.

Yuqorida keltirib o'tilganlardan kelib chiqib, norma ijodkorligi faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish kabi ulkan vazifaning amalga oshirilishida, shubhasiz, jamoaviy intellektning o'rni beqiyos. Ushbu obyektiv zaruriyat allaqachon anglab yetilganligi va to'g'ri baho berilishi ortidan norma ijodkorligi jarayoniga fuqarolarni jalb etish masalalari kun tartibidagi dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Shu bilan birga, "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (2021) bilan norma ijodkorligi jarayoniga kirib kelgan yangi institut – tartibga solish ta'sirini baholash ham bevosita jamoatchilik muhokamasini talab etishi hech kimga sir emas.

Norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki masalasi bugungi kun uchun nihoyatda dolzarbligi va hali yangi tadqiqot obyektlaridan biri bo'lganligi sababli bu boradagi asosiy tushunchalar va qarashlarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish hamda ijobiy natijalarni qonunchilikda aks ettirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish ushbu ishning maqsadini tashkil etadi.

Norma ijodkorligi, mazkur jarayonga fuqarolarning jalb etilishi, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini bo'yicha jamoatchilik muhokamasi kabi masalalar milliy huquqshunoslik fani vakillari – Z. Islomov, M. Axmedshayeva, H. Odilqoriyev, M. Najimov, Sh. Fayziyev, Sh. Saydullayevlar, MDH mamlakatlari olimlaridan Y.L. Komissarova, A.M. Budayev, V.I. Voronina, Amerika va Yevropa olimlaridan Beth Simone Noveck, Cornelia Moser va boshqalar tomonidan ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq qilingan va turli tomonlari ochib berilgan.

Material va metodlar

Mazkur maqolada norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki, uning nazariy asoslari tahlil qilinadi, shuningdek, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning sifat jihatdan mukammallashuvida, davlat organlari va fuqarolarning o'zaro hamkorligining yo'lga qo'yilishida hamda fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ilgari surilayotgan amaliy harakatlarda fuqarolarning norma ijodkorligi jarayoniga jalb etilishi nechog'li muhim ahamiyatga ega ekanligi ochib beriladi. Tadqiqot davomida bir qancha nazariy metodlar, jumladan,

tizimli, muammoli hamda gipotetik va shu kabi boshqa metodlardan foydalanib, ilmiy asoslangan nazariy xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki masalasini tahlil qilishda e'tibor qaratiladigan dastlabki masalalardan biri norma ijodkorligi tushunchasining mazmun-mohiyatini o'rganish va tadqiq qilish, uning rasmiy-huquqiy ta'riflarini shakllantirish hisoblanadi. Bu borada fikr yuritganimizda, huquq nazariyasi va amaliyotida "norma ijodkorligi" tushunchasi bilan yonma-yon keluvchi "huquq ijodkorligi" tushunchasiga ham to'xtalishimiz, ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari muhokama qilgan holda, zaruriy xulosalar chiqarishimiz kerak bo'ladi. Zero, norma ijodkorligi tushunchasini huquq ijodkorligidan farqlash zamonaviy yurisprudensiyaning muhim masalalaridan biri hisoblanishi ko'pgina olimlar tomonidan ta'kidlangan [2].

Huquq ijodkorligi o'z mohiyatiga ko'ra, davlat irodasini qonun va qonunosti hujjatlari, umum-majburiy xarakterga ega huquqiy qoidalar ko'rinishida aks ettiradi. Huquq ijodkorligi murakkab faoliyat yo'nalishi bo'lganligi sababli uning mazmun-mohiyatini tushuntirishda olimlar tomonidan turlicha fikrlar bildirilganligining guvohi bo'lamiz. Jumladan, yurtimiz olimlaridan professor Z. Islomovning fikriga ko'ra, "huquq ijodkorligi davlat faoliyatining shunday turiki, uning natijasida xalq irodasi qonun maqomiga ko'tariladi, huquq normasida, huquqning muayyan manbayida o'z ifodasini topadi [3]". Ushbu yondashuvda huquq ijodkorligi davlat faoliyatining ajralmas qismi ekanligi va shu bilan birga, bunda xalq xohish va istaklari asosiy negiz bo'lib qolishi ta'kidlanadi.

Mazkur fikrda izohlanishi kerak bo'lgan ayrim jihatlari mavjudligini ko'rsatib o'tish mumkin. Xususan, huquq ijodkorligida xalq irodasi nafaqat qonun, balki qonunosti hujjatlari darajasida ham aks etadi. Zero, muallifning o'zi huquq ijodkorligini huquq normasida, huquqning muayyan manbayida o'z ifodasini topishini qayd etadi. Barchaga ma'lumki, qonunosti hujjatlari sirasiga kiradigan ijro hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjat tusidagi qaror va buyruqlari ham huquqning muayyan manbayi hisoblanadi.

Huquq nazariyasining atoqli vakillaridan biri X. Odilqoriyev esa huquq ijodkorligini vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslarining

(referendum chog'ida – butun xalqning) huquq normalarini o'rnatish, o'zgartirish, takomillash-tirish va bekor qilishga yo'naltirilgan maxsus faoliyatidir, deb tushuntiradi [4]. Ushbu yondashuvning e'tiborli jihati shundaki, huquq ijodkorligi deganda, nafaqat yangi huquq normalarini yaratish, balki mavjudlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ularni bekor qilishni ham mazkur tushuncha qamrab olishi eslatib o'tiladi. Shu bilan birga, huquq ijodkorligiga nisbatan bu kabi yondashuv ayrim savollarni keltirib chiqaradi: "Huquq ijodkorligi faoliyati huquq normalarini izohlash, sharhlash, huquq normalarining amal qilishini to'xtatib turish kabi xususiyatlarga ham egami?" Albatta, bu kabi savollarga beriladigan javoblar bahsli bo'lishi mumkin.

Professor SH. Saydullayev esa huquq ijodkorligining bevosita huquq ijodkorligi (umumxalq referendumi), davlat organlarining huquq ijodkorligi, alohida mansabdor shaxslarning huquq ijodkorligi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquq ijodkorligi kabi turlarini alohida ko'rsatib o'tadi [5]. Bunday yondashuv anglash qiyin bo'lgan tushunchaning mohiyatiga yetib borishni osonlashtiradi, unga nisbatan kengroq razm solish imkonini beradi. Shu o'rinda ushbu yondashuvning umumnazariy xarakterga egaligi va barcha davlatlar huquqiy amaliyotida huquq ijodkorligining yuqorida sanalgan hamma turlarini uchra-tavermasligimizni qayd etish joiz.

Rus nazariyachisi L. Morozova huquq ijodkorligini uning quyidagi xususiyatlaridan kelib chiqib yoritadi:

huquq ijodkorligi davlatning monopol faoliyat turi bo'lib, mazkur faoliyat bilan vakolatli davlat organlaridan boshqa birorta yuridik yoki jismoniy shaxs shug'ullanishi mumkin emas;

huquq ijodkorligi intellektual xususiyatga ega bo'lib, jamiyat ehtiyojlari, shuningdek, turli voqea va hodisalarni o'rganish, tahlil qilish, anglashdan iborat aqliy faoliyatdir;

huquq ijodkorligi bir qancha bosqichlardan iborat bo'lgan murakkab jarayon va shu sababli uning amalga oshirilishi maxsus qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi [6].

Shubhasiz, huquq ijodkorligi bilan shug'ullanish vakolati davlatga, yanada aniqroq qilib aytganda, aniq belgilab qo'yilgan muayyan davlat organlari yoki mansabdor shaxslarigagina topshirilgan. Barcha uchun umummajburiy bo'lgan

xulq-atvor va yurish-turish me'yorlarini belgilab beruvchi huquqiy normalarni ayrim tashkilotlar yoki jismoniy shaxslarning qabul qilishi aslo mumkin emas. Qolaversa, huquq ijodkorligi nisbatan uzoqroq davom etadigan, bir necha bosqichlardan iborat yuksak intellektual salohiyat talab etadigan faoliyat bo'lganligi uchun mazkur faoliyat bilan professional shug'ullanish talab etiladi.

V. Nersesyansning qarashlariga ko'ra, norma ijodkorligi jarayoni deganda, yangi huquqiy normalarni yaratish, shuningdek, ularni takomillashtirish, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan davlatning huquqiy faoliyati tushuniladi [7]. Olim yuqoridagi yondashuvi orqali norma ijodkorligini davlatning muhim funksiyalaridan biri bo'lgan huquqiy faoliyat bilan bog'laydi.

So'nggi yillarda nazariya va amaliyotda huquq ijodkorligi tushunchasi bilan birga norma ijodkorligi tushunchasi ham qo'llanila boshladi. Norma ijodkorligi tushunchasiga nisbatan ikki xil – nazariy va rasmiy huquqiy yondashuvlar mavjudligini qayd etib o'tish joiz.

Nazariy jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, norma ijodkorligi nihoyatda keng qamrovli tushuncha ekanligiga guvoh bo'lamiz. Ma'lumki, jamiyatda turli xil munosabatlar bo'lgani kabi ularni tartibga soluvchi normalar ham turlichadir. Normalarni ularning tartibga solish predmetidan kelib chiqib, texnik va ijtimoiy guruhlariga bo'lish mumkin. Texnik normalarning vazifasi sifatida insonlar va tashqi olam, ya'ni tabiiy hodisalar, elektronika vositalari, umuman olganda, inson va jonsiz predmetlar o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirishni keltirib o'tish mumkin [8]. Bir so'z bilan aytganda, texnik normalar insonlar va tashqi dunyoning jonsiz predmetlari, voqea va hodisalar bilan bo'ladigan munosabatlarning eng maqsadga muvofiq tartibini ko'rsatib beradi.

Bugungi kunda texnik normalar texnik reglamentlar, standartlashtirishga doir normativ hujjatlar, sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya normalari va qoidalari, shaharsozlik normalari va qoidalari, ekologik normalar va qoidalarda aks etishini kuzatishimiz mumkin.

Ijtimoiy normalar insonlar va ularning birlashmalari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'lib, jamiyat a'zolarining o'zaro aloqalarini tartibga solish vositasi sifatida maydonga chiqadi. Ijtimoiy normalarning

bir qancha turlari mavjud, jumladan, odat, axloq, diniy, korporativ va huquqiy normalar. Albatta, mazkur ijtimoiy norma turlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, jamiyat hayotida ularning bir-birini to'ldirishiga guvoh bo'lishimiz mumkin [9].

Nazariy jihatdan norma ijodkorligi tushunchasining mohiyatiga oid fikrlarni umumlashtirib, xulosa qiladigan bo'lsak, norma ijodkorligi tushunchasi yuqorida keltirib o'tilgan barcha turdagi normalar, u xoh texnik norma bo'lsin, xoh ijtimoiy normaning qaysidir bir turi bo'lsin, barchasini qamrab oladi, ya'ni normani yaratish, o'zgartirish yoki bekor qilishdan iboratdir. Shu jihatdan norma ijodkorligi tushunchasi huquq ijodkorligi tushunchasidan kengroq ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Sababi norma ijodkorligi tushunchasi normaning nafaqat huquqiy, balki qolgan barcha turlarini ham qamrab oladi. Norma ijodkorligi – bu nafaqat davlatning huquqiy faoliyati, balki jamiyatdagi barcha normalarning shakllanish jarayonini ham anglatadi. Ushbu jarayonda turli korporatsiyalar, siyosiy partiyalar, diniy tashkilotlar ishtirok etadi [10]. Bu esa ayrim olimlar tomonidan ilgari surilayotgan "Huquqiy norma ijodkorligi" atamasining paydo bo'lishiga olib kelmoqda [11]. Sababi norma faqat huquqiy bo'lmasligi mumkin. Shu jihatdan yuridik texnika qoidalariga amal qilgan holda, har bir tushuncha yagona ma'noda ishlatilishini ta'minlash ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, norma ijodkorligi tushunchasiga nazariy yondashuv bilan birga endilikda rasmiy-yuridik jihatdan ham munosabat bildirishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi Farmoni bilan tasdiqlangan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da birinchi marta norma ijodkorligi tushunchasi rasman qo'llanildi va unga nisbatan yangicha qarashlarni belgilab berdi. Harakatlar strategiyasi asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdagi Farmoni bilan "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi" tasdiqlandi. Konsepsiyadan joy olgan ko'pgina yangiliklar qatorida norma ijodkorligi tushunchasi haqida xulosa chiqarishga imkon beruvchi ayrim jihatlarni qayd etish o'rinli. Jumladan, norma ijodkorligi faoliyati o'z ichiga barcha turdagi normativ-huquqiy hujjatlar, qonun va qonunosti hujjatlarini qabul

qilish, o'zgartirish yoki ularni bekor qilish kabi elementlarni qamrab olishi qayd etilganligini ko'rishimiz mumkin [12].

Amaldagi birorta rasmiy hujjatda norma ijodkorligi tushunchasiga ta'rif berilmagan bo'lsa-da, yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosa qilishimiz mumkin: "Norma ijodkorligi – bu vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar yoki fuqarolar tomonidan bevosita (referendum orqali) normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash, qabul qilish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ularni bekor qilishga qaratilgan faoliyatdir".

Fuqarolarning davlat hokimiyati va boshqaruvi sohasida ishtirok etishi masalasi qadimdan muhim siyosiy-huquqiy jarayon sifatida ko'plab olimlarni o'yantirib kelgan. Zero, bu demokratiyaning asosiy va muhim shartlaridan biridir. Shu sababli so'nggi yillarda mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish va mustahkamlash, ularning erkin va samarali faoliyat yuritishlariga sharoit yaratish, davlat organlarining fuqarolar bilan yaqin hamkorligini yo'lga qo'yish, xususan, bunda davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini joriy etish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi.

Norma ijodkorligi faoliyatida fuqarolar ishtiroki masalasida fuqaro tushunchasi markaziy o'rinida turganligi sababli mazkur tushunchaning nazariy va huquqiy tomonlarini tahlil qilish hamda norma ijodkorligi sohasida qo'llanilishining o'ziga xos tomonlarini ochib berish birlamchi masalalardan biri hisoblanadi.

Fuqaro tushunchasi haqida gap ketganda, shaxs va davlat o'rtasidagi siyosiy huquq va majburiyatlar aks etgan munosabatlar tushuniladi. Albatta, ushbu tushuncha ko'proq siyosiy-huquqiy atama sifatida rasmiy doirada qo'llanilganligi sababli uning ma'nosiga to'xtalganda, etimologik jihatdan yondashish maqsadga muvofiq emas. O'zbek tilining izohli lug'atlarida ham uning bir qancha ma'nolari ajratib ko'rsatiladi: 1) biron mamlakatning doimiy (muayyan yuridik huquqlarga ega bo'lgan) aholisi, grajdanlar; 2) umuman, oddiy xalq, omma; 3) oddiy, qashshoq qora xalq vakili [13]. Ayrim olimlar ushbu tushunchaning etimologik kelib chiqishi va so'zma-so'z ma'nosiga urg'u qaratib, uni muqobil variantlarga o'zgartirish haqida fikr bildirishadi [14].

Biroq bu masalaga O'zbekiston xalq shoiri, marhum Erkin Vohidov quyidagicha yondashish kerakligini ilgari surgan edi: "Kelib chiqishi faqir bo'lgan fuqaroning bugungi sohiblik maqomi, yurt egasi darajasiga ko'tarilgani ana shu tarixni eslatadi. Farq shuki, fuqaro hozirgi maqomga qadam-baqadam ko'tarilgan. Faqirlik – tobelikka, tobelik darajama-daraja yuqorilab, avval xojaning fuqarosi, so'ng amir-u sultonning, bora-bora mamlakatning fuqarosi qadar yetib kelgan. Bir qo'li bilan ruscha grajdanin, ikkinchi qo'l bilan inglizcha sitizen so'zlarini mahkam ushlab, dunyo sahnida mag'rur turibdi. Zotan grajdanin ham, sitizen ham o'zlarining avvalgi shaharlik degan ma'nolarini allaqachon tark etganlar" [15].

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonunida (2020) O'zbekiston Respublikasida fuqarolik shaxsning davlat bilan o'zaro huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi yig'indisida ifodalanadigan hamda inson qadr-qimmatini, asosiy huquqlari va erkinliklarini e'tirof etish hamda hurmat qilishga asoslanadigan doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilashi mazmunidagi norma belgilangan. Qonunda ham fuqaro tushunchasiga nisbatan siyosiy-huquqiy kategoriya sifatida yondashilgan va unga berilgan ta'rif shakllantirilayotganda, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi yo'q shaxslardan farqlashga harakat qilingan [16].

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, fuqaro tushunchasi rasmiy yuridik ma'noda ham qo'llanilayotgan huquq sohasining xususiyatidan kelib chiqib turlicha yondashishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 8-moddasida O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etishi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, Bosh qomusimizda ayrim shaxsiy huquq va erkinliklarda hamda siyosiy huquqlarda ushbu atamadan foydalanilgan. Ya'ni konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlarda fuqaro so'zi aynan bir davlatga tegishli jismoniy shaxsga nisbatan ishlatilsa, fuqarolik huquqiy munosabatlarida esa fuqaro deganda, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, norma ijodkorligi faoliyatida fuqarolar ishtiroki masalasi haqida gapirilganda, aniq yondashuvni shakllantirib olish zarur. Buning uchun masalaga bir qancha

rakurslardan turib baho berish lozim. Ya'ni norma ijodkorligi faoliyati davlat suverenitetining ajralmas bo'lagi bo'lgan davlat hokimiyatini amalga oshirishning asosiy vositasi, davlatning xalq irodasini ifoda etish shakli va muhim siyosiy-huquqiy jarayon hisoblanadi.

Norma ijodkorligida fuqarolarning ishtiroki qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarga qay darajada ta'sir etishini anglatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, norma ijodkorligi faoliyatida fuqarolar ishtiroki masalasida faqat O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tushunilishi maqsadga muvofiq. Norma ijodkorligi davlat hokimiyatini amalga oshirishning eng asosiy shakllaridan biri bo'lganligi sababli ushbu munosabatlarda xorijiy fuqarolar, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ishtirok etishi davlat xavfsizligi va ichki suverenitetiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bundan tashqari, tadqiqot ishida fuqarolarning mamlakatning oddiy fuqarosi sifatida ishtirok etishi tahlil qilinadi. Shaxslar bir vaqtning o'zida fuqaro bo'lish bilan birga, maxsus bilim, ko'nikma va tajribalariga ko'ra mutaxassis yoki ekspert, shuningdek, egallab turgan lavozimiga ko'ra vakolatli subyekt sifatida ham norma ijodkorligi faoliyatida ishtirok etishi mumkin. Biroq tadqiqot obyektni tashkil etadigan munosabatlar jamiyatning bir a'zosi sifatida alohida individlar, oddiy fuqarolarni nazarda tutadi.

Norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki tushunchasi keng qamrovli, murakkab tashkiliy-huquqiy mexanizm orqali amalga oshiriladigan, fuqarolardan yuksak huquqiy ong va huquqiy madaniyat talab etadigan, o'zida axborotdan, jumladan, huquqiy axborotdan foydalanish huquqining amalda ta'minlanishini aks ettiradigan hodisani anglatadi.

Fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki tushunchasi o'zida bir qancha elementlarni ifodalaydi:

muhokamasi olib borilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalaridan xabardorligi; qonunchilik tashabbusi huquqiga ega subyektlar orqali qonun loyihalarini ishlab chiqishlari va Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga taqdim etishlari; normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining muhokamasida onlayn yoki oflayn rejimda ishtirok etishlari;

muayyan bir normativ-huquqiy hujjat yuzasidan ariza, taklif va shikoyat ko'rinishida vakolatli davlat organlariga murojaat qilishlari;

ixtiyoriy tarzda bepul yoki fuqaroviy shartnomalar asosida normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiquvchi ishchi guruh tarkibida ishtirok etishlari;

jamoatchilik nazorati subyektlari sifatida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy dasturlarida jamoatchilik manfaatlari, jamoatchilik fikrini hisobga olishda ishtirok etishlari;

referendum yo'li bilan bevosita normativ-huquqiy hujjatni qabul qilishlari.

Garchi qonunchilikda fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki masalasi to'g'ridan-to'g'ri alohida normada belgilanmagan bo'lsa-da, fuqarolar normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishida u yoki bu ko'rinishda ishtirok etadilar. Mana shunday tarqoq va tizimlashtirilmagan hodisaning samaradorligini oshirish hamda yanada takomillashtirish norma ijodkorligi sohasidagi ustuvor vazifalardan biridir. Norma ijodkorligida fuqarolarning ishtiroki masalasi kompleks yondashuvni talab etadigan tadqiqot predmetlaridan hisoblanadi. Uning amaliyotda ishlash mexanizmi quyidagilar bilan chambarchas bog'liqligini kuza-tish mumkin:

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi;

davlat hokimiyati organlari, mansabdor shaxslarning mas'ulligi va javobgarligi;

huquqiy axborotni tarqatish;

axborot erkinligining amalga oshirilishi;

huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish;

fuqarolar murojaatlari huquqining kafolati.

Norma ijodkorligi faoliyatiga fuqarolar ishtiroki institutining kirib kelishiga nisbatan ehtiyoj paydo bo'lishining bir necha sabablari mavjud.

Birinchidan, huquq mohiyati to'g'risidagi ijtimoiy nazariyaga ko'ra, norma ijodkorligi faoliyatiga mavjud ijtimoiy munosabatlarning xususiyatlari, shuningdek, bu ijtimoiy munosabatlar subyektlarining dunyoqarashi, xarakteri va kayfiyatidan kelib chiqqan holda yondashilgandagina huquq jonli xarakter kasb etadi [17]. Aks holda, u rasmiy qog'ozdagi qaydligicha qoladi. Shu sababdan amaliyotda to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan

qonunlar hamda sifatli va samarali qonunosti hujjatlarini qabul qilishga norma ijodkorlari jamiyat a'zolari bilan yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'ygandagina erishilishi mumkin.

Ikkinchidan, fan va texnologiyalarning kundan-kunga tobora rivojlanib borishi ularning natijalari kirib borgan munosabatlarning mutanosib ravishda murakkablashishiga olib kelmoqda. Texnologiyadagi innovatsiyalar shu darajada shiddatli tus olmoqdaki, ularni tushunish va huquqiy baho berish uchun maxsus tayyorgarlikdan o'tish ayrim hollarda vakolatli subyektlar uchun imkonsiz ishga aylanmoqda. Ya'ni bunday sharoitda norma ijodkoridan hamma narsani bilish talab etiladi va bu amalda, haqiqatan ham, imkonsiz ishdir. Jumladan, asosida sun'iy intellekt yotgan barcha kashfiyotlarning (haydovchisiz mashinalar, robotlar, internetdagi ijtimoiy tarmoqlar) kundalik hayotimizga faol tatbiq etilishi ularni maqsadga muvofiq tarzda tartibga soluvchi normalarning samarali tizimini yaratish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Shuningdek, iqlim o'zgarishidan tortib migratsiya masalalariga qadar sohalaridagi munosabatlarni tartibga solish bo'yicha aniq va ishonchli ma'lumotlar yo'q. Vakolatli subyektlar faqat mavjud ma'lumotlar bilan cheklanmoqda. Bular bo'yicha norma ijodkorlarida aniq tasavvur yo'q. Bu esa norma ijodkorligi jarayoniga katta jamoaviy aqlni jalb qilish tendensiyasiga chaqiriq sifatida yangramoqda.

Shunday qilib, yangiliklarni rag'batlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish bilan bir vaqtda jamoatchilikni himoya qiladigan siyosat va qonunchilikni ishlab chiqish ko'proq ma'lumot va tajribaga ega bo'lishni talab qiladi. Shu jihatdan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish yanada moslashuvchan va samarali bo'lishi uchun hamda norma ijodkorligi sifatini yaxshilash maqsadida kengroq tajriba va turli xil qarashlarga ega bo'lgan keng omma bilan muloqotning yo'lga qo'yilishi muhimdir.

Ilm-fan va texnologiya yutuqlari yashash tarzimizni tubdan o'zgartirib yuborishi tabiiy. Ko'pchiligimiz tushunmaydigan va nazorat qilishimiz qiyin bo'lgan texnologik tizimlarga bo'ysunib qolmasligimiz uchun davlat organlarini jamoaviy intellegensiya bilan bog'laydigan platformalarga zaruriyat har qachongidan ham ortib bormoqda.

Uchinchidan, dunyo miqyosida kuzatilayotgan tendensiya – bu aholining hukumatga nisbatan ishonchining tobora pasayib borayotganligidir. 2018-yilda so'rov o'tkazilgan 28 mamlakat aholisi orasida hukumatga bo'lgan ishonchning o'rtacha darajasi 28 foizni tashkil qilgan [18].

Turli xil manbalardan ma'lumotlar olish va ularni ko'pchilik ishtirokida qayta ishlash qonunchilik sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, shubhasiz. Ommaviy maslahatlashuvlar, albatta, yangi tushuncha emas. Bu boradagi xorij tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, Amerika Qo'shma Shtatlarida 1946-yildayoq qabul qilingan qonun hujjatlariga fuqarolar tomonidan sharh berish huquqi kafolatlangan edi. Biroq bu qabul qilingan qonun hujjatlariga nisbatan tatbiq etilib, qonun hujjatlarning loyihalari, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga amalda hech qanday ta'sir o'tkazmas edi [19]. 2013-yilda Finlandiyada yo'l harakati qoidalari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasi bir necha bosqichga asoslangan fuqarolar ishtiroki orqali ishlab chiqilgan va bu amaliyot samarasi butun dunyo tomonidan e'tirof etilgan edi [20].

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksalib borishi, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlaridagi faolligining ortishi natijasida mazkur institutning yanada hayotiy ahamiyat kasb etayotganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu jarayon norma ijodkorlari ish uslubining o'zgarishiga olib keladi. Ular endilikda muammoni chuqur anglab yetish va uni keng xalq ommasiga aniq qilib tushuntirib berishga harakat qilishlari kerak. Sababi fuqarolar ishtiroki shunchaki muayyan masala bo'yicha ovoz berish va ularni umumlashtirish emas, balki yangi g'oyalarni qabul qilish va ularni tahlil qilishdan iboratdir.

Xulosalar

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki quyidagi ijobiy xususiyatlarga ega ekanligini ta'kidlash o'rinli:

fikr va qarashlari davlat hokimiyati vakillari tomonidan tinglanishi va qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlarida aks etishi bilan bog'liq fuqarolarning ruhiy-ijtimoiy faolligini oshiradi;

norma ijodkorligi jarayonining sifat jihatdan yuqori darajaga ko'tarilishini ta'minlashga xizmat qiladigan kuchli jamoaviy intellektni shakllantiradi;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasida ko'proq va kengroq doiradagi masalalarni qamrab olish imkonini beradi;

fuqarolarning hokimiyat va boshqaruv organlariga nisbatan ishonchining ortishiga sabab bo'ladi;

norma ijodkorligi jarayoni qonuniyligining mustahkamlanishi hamda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan vakolatli subyektlar va fuqarolarning *birgalikdagi javobgarligining* yuzaga kelishiga olib keladi;

fuqarolar tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatiga to'g'ri va xolisona baho berilishi hamda bu orqali hukumatga nisbatan ongli hurmat ruhini paydo qiladi;

fuqarolarning qonuniy manfaatlarini ifoda etish platformasi bo'lib xizmat qiladi;

norma ijodkorlarining ochiqligi va hisobdorligini yanada orttiradi.

Olimlar norma ijodkorligi jarayonida fuqarolarning ishtiroki ko'pgina ijobiy tomonlari bilan birga, ayrim kamchiliklardan ham xoli emasligini ta'kidlashadi:

amalga oshirilishi haqiqatda imkonsiz takliflarning ko'p berilishi;

normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish jarayonining sekinlashishi;

fuqarolarning norma ijodkorligida turli shakllarda ishtirok etishi qo'shimcha byudjet mablag'larini talab etishi [21].

Norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokini yanada rivojlantirish va bu orqali samarali normativ-huquqiy hujjatlar tizimini yaratishda quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Bu boradagi barcha asosiy tushunchalarning ilmiy-nazariy ta'riflarini ishlab chiqish va qonunchilikda aks ettirish lozim;

2. Norma ijodkorligi jarayonida fuqarolarning samarali ishtirokini ta'minlash maqsadida jamiyatning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida tizimli ishlarni amalga oshirish, jumladan, fuqarolarga norma ijodkorligini amalga oshirish bilan bog'liq zarur bilim va ma'lumotlarni taqdim etish mexanizmini joriy etish zarur.

3. Barcha turdagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda fuqarolar ishtirokini ta'minlash maqsadida norma ijodkorligining raqamlashtirish jarayonini nihoyasiga yetkazish maqsadga muvofiq.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakat Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi [Speech by the President-elect of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the solemn ceremony dedicated to the 24th anniversary of the adoption of the Constitution of the country]. Available at: <https://www.gazeta.uz/uz/2016/12/07/speech/>.

2. Jarmonova E.N. Otlchie normotvorchestva ot pravotvorchestva kak odna iz osnovnyh problem jurisprudencii [The difference between rule-making and law-making as one of the main problems of jurisprudence]. Nauchno-metodicheskij jelektronnyj zhurnal «Koncept» – Scientific-methodical electronic journal "Concept", 2016, no. 1, p. 16. Available at: <http://ekconcept.ru/2016/76189.htm/>.

3. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Tashkent, Adolat, 2007, p. 585

4. Odilqoriyev X. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Tashkent, Adolat, 2018, p. 325.

5. Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Tashkent, TSUL, 2020, p. 132

6. Morozova L.A. Teorija gosudarstva i prava [Theory of Government and Rights]. Moscow, Jeksmo, 2010, p. 221.

7. Nersesjanc V.S. Problemy obshhej teorii gosudarstva i prava [Problems of the general theory of state and law]. Moscow, 2002, 270 p.

8. Dobosh S.I. K voprosu o social'noj sushhnosti tehicheskix norm [To the question of the social essence of technical norms]. Available at: <https://izron.ru/articles/>.

9. Nikishova N.V. Ponjatie i sushhnost' social'noj normy: social'no-filosofskij analiz [The concept and essence of social norms: socio-philosophical analysis yusch]. Gramota – Diploma, 2014, no 1 (39), issue 2, pp. 147-149.

10. Dimitrov N.N., Shagieva R.V. Osnovy normotvorchestva. Ucheb. posobie [Foundations of rule-making. Textbook. allowance]. Moscow, 2013, p. 41.

11. Jarmonova E.N. Otlichie normotvorchestva ot pravotvorchestva kak odna iz osnovnyh problem jurisprudencii [The difference between rule-making and law-making as one of the main problems of jurisprudence]. Nauchno-metodicheskij elektronnyj zhurnal «Koncept» – Scientific-methodical electronic journal "Concept", 2016, no. 1, p. 16. Available at: <http://ekoncept.ru/2016/76189.htm/>.
12. Sajdullaev Sh.A. Voprosy sovershenstvovaniya nauchno-teoreticheskikh i metodologicheskikh osnov normotvorcheskoj dejatel'nosti v Respublike Uzbekistan na fone zarubezhnogo opyta [Issues of improving the scientific, theoretical and methodological foundations of rule-making activities in the Republic of Uzbekistan against the background of foreign experience]. Studia Politologiczne, 2019, vol. 52.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati. P. 54. Available at: www.ziyouz.com/.
14. "Hordiq plus" gazetasi ["Hordiq Plus" newspaper]. Available at: www.hordiq.uz/.
15. Vohidov E. Tirik xazina yoxud jahongashta so'z [A living treasure is a word in the world]. O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi – Literature and Art of Uzbekistan, 2009, no. 9.
16. Saydullaev S. Particular issues of identification of legal gaps in law. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 2020, vol. 12, no. S2, pp. 333-336.
17. Maslovskaja E.V. Sociologicheskie teorii prava [Sociological theories of law]. Sociologicheskij zhurnal – Sociological journal, 2005, no.1.
18. Edelman 2018. Trust barometer Global Report.
19. Beth Simone Noveck Crowdlaw. Collective Intelligence and Lawmaking.
20. Aitamurto T. Collective Intelligence in Law Reforms: When the Logic of the Crowds and the Logic of Policy-making Collide, 2016 49th Hawaii International Conference on System Sciences.
21. Aris M.S., Salman R. Public Participation in the Law Making Process in Change Era: A Comparative Study between Indonesia (East Java) and the United States (California) In Proceedings of the International Law Conference (iN-LAC 2018). Law, Technology and the Imperative of Change in the 21st Century, pp. 151-155. ISBN: 978-989-758-482-4/.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2021/4

BOSH MUHARRIR:

Tashkulov Akbar Djurayevich
Toshkent davlat yuridik universiteti rektori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Salayev Nodirbek Saparbayevich
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Jurnal 24.11.2021-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 23,52 b.t. Adadi: 100. Buyurtma: № 63.

TDYU tipografiyasida chop etildi.